



IJRO ISHI HUJJATLARI TALABINI IXTIYOIRY RAVISHDA BAJARISHNI TA'MINLASHNING GENEZISI

Avazjonov Asiljon Avazjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17731613>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-noyabr 2025 yil
Ma'qullandi: 23-noyabr 2025 yil
Nashr qilindi: 27-noyabr 2025 yil

KEYWORDS

*ijro ishi, majburiy ijro, sud
ijrochisi, ijro tizimi, qiyosiy-
huquqiy tahlil.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada sud hujjatlarini ijro etish institutining shakllanish va rivojlanish bosqichlari G'arb davlatlari hamda O'zbekiston tajribasi misolida qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan. Muallif ijro ishi yurituvining tarixiy evolyusiyasi, uning tashkiliy-huquqiy asoslari va amaldagi mexanizmlarining takomillashuv jarayonlarini o'rgangan holda, turli huquqiy tizimlardagi o'xshashlik va farqli jihatlarni aniqlaydi. Tadqiqotda, shuningdek, milliy ijro tizimining bugungi holati va uning rivojlanish tendensiyalariga baho berilib, ijro ishi samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-nazariy xulosalar ilgari suriladi..

Ijro hujjatlari talabining ixtiyoriy ravishda ijro etish genezisi — bu O'zbekistonda ijro yuritish tizimida qarzdor undagan majburiyatni o'z ixtiyori bilan ado qilish imkoniyati yaratishga qaratilgan huquqiy mexanizm bo'lib, uning tarixi va rolini bir necha tarkibiy bosqichda qarash mumkin.

Mazkur genezisni tahlil qilishdan oldin ijro ishi yuritish bo'yicha ayrim terminlarga aniqlik kiritib olsak, **Ijro ishi** – bu qonuniy kuchga kirgan ijro hujjatlarini ijro etishga qaratilgan protsessual va amaliy xarakterdagi yig'indisidir. Ijro ishi fuqarolik xolatining aloxida bosqichi bo'lib, sud hujjatlari yoki boshqa organlar hujjatlari talablari ixtiyoriy ravishda bajarilmaganida yuzaga keladi.

Majburiy ijro – bu mulkiy undiruv yoki nomulkiy xarakterdagi ijro hujjatlarini qarzdor tomonidan ixtiyoriy ravishda bajarilmagan taqdirda ijro tomondan qo'llaniladigan majburiy ijro harakatlari yig'indisidir.

Mulkiy undiruv bilan bog'liq bo'lgan ijro ishlari yuzasidan ijrochi o'z vakolatlari doirasida undiruvni qarzdorning mol-mulki yoki mulkiy huquqlariga qaratish orqali amalga oshirsa, nomulkiy xarakterdagi ijro hujjatlari (uydan ko'chirish, uyga kiritish, bolani olib berish, noqonuniy qurilmani buzish va x.k.) yuzasidan qarzdorlarni ijro hujjatida ko'rsatilgan talablarni bajarishi uchun majburiy ijro etish choralarini ko'rish va ma'muriy choralar ko'rish bilan amalga oshiradi.

Sud ijrochisi – fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar, jinoyat sudlarining mulkiy undiruv bilan bog'liq bo'lgan qismi va ijro hujjati kuchiga ega bo'lgan boshqa hujjatlarning majburiy ijrosi

bilan shug'ullanuvchi shaxs hisoblanadi. Dunyoning barcha mamlakatlarida sud ijrochisi u yoki bu nom yoki shakl bilan mavjud va faoliyat ko'rsatib keladi.

Ijro hujjatlari talabining ixtiyoriy ravishda ijro etish genezisiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ushbu instituti rivojlanishi quyidagi bosqichlar orqali namoyon bo'ladi:

Ijro ishi hujjatlarini ixtiyoriy ravishda ijro etish bo'yicha ilk huquqiy asosni shakllantirish bosqichi. O'zbekiston Respublikasida sud hujjatlarini ijro etish tizimining zamonaviy huquqiy modeli sobiq SSSR davrida shakllangan ijro institutining intikosiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Oktabr inqilobidan (1917) keyin Rossiya imperiyasining sud va ijro organlari tubdan isloh qilinib, ular sotsialistik huquqni qurish g'oyalari asosida qayta tashkil etildi. Bu jarayon birinchi navbatda ijro faoliyatining sud hokimiyati tizimiga integratsiyalashuvi bilan tavsiflanadi: ijro vazifalari sudlar qoshida faoliyat yuritgan sud ijrochilari zimmasiga yuklatildi¹.

1923 yilda qabul qilingan RSFSR Fuqarolik protsessual kodeksi majburiy ijro yurituvining huquqiy poydevorini belgilab, ijro ishlari bo'yicha protsessual harakatlar, muddatlar, qatnashuvchi sub'ektlarning huquq va majburiyatlarini aniq tartibga soldi². Ushbu kodeks normalari keyinchalik SSSR tarkibiga kirgan barcha respublikalarda, jumladan O'zbekistonda ham, amaldagi ijro yurituvining asosiy me'yori sifatida tatbiq qilingan.

Ijro jarayonida xarajatlarni qoplash va ijro organlari faoliyatini moliyaviy jihatdan ta'minlash maqsadida maxsus to'lovlarning — ijro yig'imlarining undirilishi ham aynan shu davrda huquqiy tartibga solina boshlagan. Ilk marotaba 1920-yillar oxiri va 1930-yillar boshlarida ijro harakatlari uchun yig'imlar undirilishi amaliyotga joriy etilgan bo'lib, bu ijro jarayonining iqtisodiy mexanizmlarini mustahkamlagan. M.A. Gurvich ta'kidlaganidek, ijro yig'imlarining joriy qilinishi ijro organlarining moddiy manfaatdorligi va ijro jarayonining samaradorligi o'rtasida muayyan bog'liqlikni shakllantirgan³.

1930–1950 yillarda ijro organlari tuzilishi bo'yicha bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ularda sud ijrochilarining protsessual vakolatlari, ijro harakatlari bosqichlari va ijro jarayonining davlat nazorati aniq belgilab qo'yildi⁴. Ijro tizimi sotsialistik huquq nazariyasida, ayniqsa M.A. Gurvich, N.A. Chechina va M.K. Treushnikovning asarlarida, fuqarolik protsessining yakkunlovchi bosqichi sifatida ko'rib chiqilgan⁵. Ularning ilmiy qarashlarida ijroning huquqiy tabiati, ijro organlarining sud hokimiyati bilan o'zaro munosabatlari va ijro jarayonidagi huquqiy kafolatlar tizimli ravishda asoslab berilgan.

Qiyosiy huquqshunoslik nuqtai nazaridan qaralsa, sovet ijro tizimi kontinental huquq tizimiga mansub Yevropa mamlakatlarining (Germaniya, Fransiya, Avstriya) ijro modellaridan keskin farq qilgan. Masalan, Germaniyada ijro faoliyati mustaqil sud amaldorlari — "Gerichtsvollzieher" tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, Fransiyada ishtirok etuvchilarning huquqlari kengroq protsessual kafolatlar bilan himoyalangan⁶. Sobiq SSSRda esa ijro organlarining sud tizimiga qat'iy bog'liqligi va markazlashgan ma'muriy boshqaruvning ustuvorligi o'ziga xos xususiyat sifatida namoyon bo'lgan.

1

Лейст О.Е. *Правоохранительные органы: история и современность*. — М.: Юридическая литература, 1981.

Гражданский процессуальный кодекс РСФСР 1923 года. — М., 1923.

Леонтьев Б.Б. *Исполнительное производство в советском праве*. — Москва., 1940.

Чечина Н.А. *Советский гражданский процесс*. — Л.: ЛГУ, 1962.

Гурвич М.А. *Миссия и роль суда в процессе формирования гражданского права*. — М.: Юридическая литература, 1978.

SSSR davrida sud hujjatlarini ijro etish tizimining tashkiliy asoslarini belgilab bergan muhim normalardan biri — sud ijrochilarini lavozimga tayinlash va ularni lavozimidan ozod etishning sud hokimiyati tomonidan amalga oshirilganidir. Amaldagi tartibga ko'ra, sud ijrochilarini lavozimga tayinlash bevosita sud raisining vakolatiga kirgan. Bu holat ijro organlarining sud tizimiga institutsional jihatdan bog'liqligini ko'rsatib, ijro yurituvining sud nazorati ostida amalga oshirilganini anglatadi.

Ushbu davrda sud ijrochilariga jismoniy va yuridik shaxslarning majburiyatlarini amalga oshirilishiga qaratilgan keng vakolatlar berilgan bo'lib, ular fuqarolik ishlari bo'yicha sud qarorlari va ajrimlarini, notariuslar tomonidan berilgan ijro xatlarini, arbitraj sudlarining qarorlarini hamda qonunchilikda belgilangan boshqa turdagi ijro hujjatlarini bajarish uchun mas'ul bo'lganlar⁷. Bunday keng qamrovli vakolatlar ijro faoliyatining sud hujjatlarini amaliy hayotga tatbiq etishdagi muhim o'rnini belgilab bergan.

Keyinchalik ijro harakatlarini amalga oshirishning boshqa qonuniy asoslari ham yaratilgan. Jumladan, 1964 yildagi fuqarolik protsessual kodeksi, sobiq SSSR Adliya vazirligining 1973 yil 24 apreldagi "Sud qarorlarini ijro etish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomasi, 1985 yil 15 noyabrdagi "Ijro ishi to'g'risida"gi yo'riqnomasi. Shu davrga kelib shakllangan sud qarorlarini ijro etish tizimi 1991 yilga qadar amalda bo'lgan⁸.

Qonunchilikni normativ asosda mustahkamlash hamda Ijro organlarini markazlashtirish bosqichi. Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda sud hujjatlarini ijro etish amaliyoti sobiq SSSR davridan meros bo'lib qolgan tashkiliy-huquqiy mexanizmlar asosida amalga oshirilib kelindi. Sud ijrochilari sudlar tarkibida faoliyat yuritgan, ularning xizmat faoliyati ustidan nazorat esa bevosita sudlar tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, bu holat ijro organlarining institutsional mustaqilligi hali to'liq shakllanmaganini ko'rsatadi⁹.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin (1991), ijro tizimi milliy huquq tizimining umumiy islohoti bilan bir qatorda qayta ko'rib chiqildi. Jumladan, 1997 yilda qabul qilingan "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonun milliy ijro yurituvining ilk huquqiy asosi sifatida mustahkam ahamiyat kasb etdi¹⁰. Keyingi yillarda ijro tizimini yanada takomillashtirish O'zbekiston huquqshunosligida ham dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Xususan, A.X. Saidov, B. Matichev, Z. Ismoilov kabi milliy olimlar ijro yurituvining institutsional asoslari, ijro samaradorligini oshirish va insonparvarlik prinsiplarini kuchaytirish bo'yicha qator nazariy takliflar ilgari surganlar¹¹.

Ijro ishi yuritishning iqtisodiy-huquqiy tabiati shundan iboratki, u faqat majburiy choralar qo'llash orqali amalga oshiriladigan protsess emas, balki avvalo majburiyatlarni **ixtiyoriy ravishda bajarishga da'vat qiluvchi kafolatli mexanizm** sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekistonda bu tamoyil ijro ishi yuritishning alohida instituti sifatida shakllangan bo'lib, uning huquqiy asosi "Ijro ishi yuritish to'g'risida"gi Qonunning 30-moddasida belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, ijro hujjatini qabul qilgan davlat ijrochisi qarzdorga ma'lum muddatda

⁷ Треушников М.К. *Гражданский процесс*. — Москва.: Городец, 2002.

⁸

⁹ Саидов А.Х. *Ижро этиши о'rganlarining mustaqilligi to'g'risida*. — Т.: Адolat, 2002.

¹⁰ Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 29 августдаги "Суд хужжатлари ва бошқа органлар хужжатларини ижро этиш тўғрисида"ги Қонуни.

¹¹

ixtiyoriy ijro etish tartibi mavjudligini tushuntirishi va ijronni amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratishi lozim¹².

Ixtiyoriy ijro etish institutining ilmiy-amaliy ahamiyati to'g'risida professor H.R.Rustambaeva ta'kidlaydiki, ijro jarayonining dastlabki bosqichida qarzdorga ixtiyoriy ravishda majburiyatni bajarish imkoniyatini berish "ijro xarajatlari kamayishi, ijrochilar yuki yengillashishi va ijtimoiy yuksak maqsad – nizolarni barcha tomonlar manfaatida hal etishga xizmat qiladi"¹³. Shu nuqtai nazardan, ixtiyoriy ijro etish bosqichlari ijro ishi yuritishning faqat texnik qismiga tegishli emas, balki huquqiy-ijtimoiy ahamiyatga ega tizim hisoblanadi.

2001 yilga kelib ijro sohasida o'ta muhim institutsional va huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, 2001 yil 29 avgustda "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinishi ijro tizimining rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi¹⁴. Mazkur qonun milliy huquq tizimida ijro ishi yurituvini mustaqil huquqiy institut sifatida e'tirof etishga xizmat qildi.

Qonunning eng muhim yangi jihatlardan biri — sud ijrochisining hokimiyat vakili ekanligini huquqiy tarzda mustahkamlab qo'yilganidir. Bu normaning kiritilishi sud ijrochisining davlat hokimiyatinomidan majburiy talablarni bajartirish, ijro jarayonida davlat nazoratini amalga oshirish hamda majburlov choralari qo'llash bo'yicha vakolatlarini aniq belgilab berdi¹⁵. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, sud ijrochisining hokimiyat vakili sifatida huquqiy maqom olishi ijro yurituvini samaradorligini ta'minlovchi institutsional kafolatlardan biridir¹⁶.

Shu bilan bir qatorda, ushbu qonunda birinchi marta ijro hujjatlarining ixtiyoriy ijro etilishiga oid normalar alohida huquqiy institut sifatida mustahkamlandi. Ixtiyoriy ijro etish muddatining belgilanishi fuqarolar va yuridik shaxslarning majburiyatlarni o'zi bajarishiga sharoit yaratdi, ijro jarayonidagi asossiz majburlash choralari qisqartirishga xizmat qildi hamda ijro yurituvining insonparvarlik prinsiplarini amaliy jihatdan ta'minlashni kuchaytirdi¹⁷.

2001 yilgi mazkur qonun sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda yuzaga keladigan barcha huquqiy munosabatlarni tartibga solgan ilk kompleks maxsus qonun bo'lib, keyingi ijro tizimi islohotlari uchun normativ-huquqiy poydevorni shakllantirdi.

Ijro ishi yuritish tizimini islox qilish izchillik bilan davom ettirilib, 2001 yil 22 oktabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi sudlari faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 383-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq, Vazirlar mahkamasining 2001 yil 10 martdagi 120-sonli qarori bilan tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi sudlar faoliyatini tashkiliy, moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash

12

Ўзбекистон Республикасининг "Ижро иши юритиш тўғрисида"ги Қонуни. 1999 йил 29 август.

Ўзбекистон Республикасининг 2001 йил 29 августдаги Қонуни "Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тўғрисида"ги Қонуни.

15

Матичев Б. *Ижро иши юритишда давлат ва суд назоратининг ўрни*. — Т., 2005.

Қораев Ш. *Ижро иши юритиш назарияси ва амалиёти*. — Т.: ТДЮИ, 2003.

Исмонлов З. *Ўзбекистонда ижро иши юритишнинг институционал ривожланиши*. — Т., 2015.

departamenti sifatida qayta tashkil etildi. Shu bilan ijro ishi yuritish tizimi mustaqil tashkilot sifatida sudlardan ajralib chiqib faoliyat ko'rsata boshladi¹⁸.

O'zbekiston qonunchiligida ixtiyoriy ijro etish bosqichlari bosqichma-bosqich takomillashib kelgan. Xususan, 2001 yilda qabul qilingan "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunda "ixtiyoriy ijro" tushunchasi cheklangan tarzda, asosan, davlat ijrochisining ogohlantiruvchi sifatida ko'rib chiqilgan edi.

2011 yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Qonunda esa ushbu institut alohida bosqich sifatida mustahkamlanib, uning elementlari — muddat, ogohlantirish, majburiy ijroga o'tish shartlari aniq belgilab qo'yildi. 2017–2020 yillardagi islohotlar natijasida:

- ixtiyoriy ijroga ajratilgan muddat uzaytirildi;
- davlat ijrochisi tomonidan elektron ogohlantirish tizimi joriy etildi;
- qarzdorga ixtiyoriy amalga oshirilgan holda ijro harakatlari uchun xarajatlardan ozod etilish kafolati yaratildi.

Professor A.Qutlimurodov ta'kidlaganidek, ixtiyoriy ijroga doir normalarning takomillashishi ijro ishi yuritishda "qat'iy jazolash modelidan ixtiyoriy amalga oshirishni rag'batlantirish modeliga" o'tish imkonini berdi¹⁹.

2001 yilgi qonun qabul qilinganidan keyingi davr ijro ishi yurituvchi institutining bosqichma-bosqich takomillashuvi bilan xarakterlanadi. 2001–2017 yillarda milliy ijro tizimi xalqaro tajribalarni o'rganish, institutsional mustaqillikni oshirish, sud hujjatlarining ijrosida inson huquqlarini kafolatlash va ijro jarayoni samaradorligini ta'minlashga qaratilgan bir qator muhim qonun hujjatlari bilan boyitildi.

Ijro tizimini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish bosqichi. 2017 yildan bugungi kunga qadar bo'lgan davr O'zbekiston ijro tizimi rivojlanishida burilish nuqtasi bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 maydagi PF-5059-son Farmoni bilan Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish bo'yicha yangi, mutlaqo mustaqil organ — Majburiy ijro byurosi (MIB) tashkil etildi.

Bu islohot ijro tizimini tubdan o'zgartirdi, chunki:

1. Ijro tizimi suddan ajratildi, MIB Bosh prokuraturasi huzurida tashkil etildi va ijro jarayoni suddan institutsional jihatdan ajratildi. Bu qadam ijro organlarining mustaqilligi, professional tayyorgarligi va mas'uliyatini oshirdi.

2. MIBga keng majburlov vakolatlari berildi, jumladan:

- qarzdorning mol-mulkini hibga olish,
- bank hisobidan mablag'larni undirish,
- haydovchilik guvohnomasini vaqtincha to'xtatish,
- cheklov choralari joriy etish (chetga chiqishni cheklash va boshqalar), kabi mexanizmlar mustahkamlandi. Bu ijro jarayoni samaradorligini ilgorigidan bir necha barobar oshirdi.

3. Ijtimoiy ahamiyatga ega yig'imlar MIB ixtiyoriga o'tkazildi, Elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi va boshqa kommunal xizmatlar bo'yicha qarzlarni undirish bo'yicha vakolatlar ham MIB zimmasiga yuklatiladi. Bu holat ijro organlarining fuqarolar bilan munosabatlarini kengaytirdi va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini oshirdi.

¹⁸

¹⁹Фухташева У. Ижро иши юритиш: дарслик – Тошкент: Муסיқа, 2010.

Давлятов М. Ижро иши юритишда профилактика тизими – Самарканд, 2019. – Б. 54.

6. Cappelletti M., Garth B. Access to Justice: Comparative Legal Traditions. — Oxford, 1978.
7. Треушников М.К. Гражданский процесс. — Москва.: Городец, 2002.
8. Тухташева У. Ижро иши юритиш: дарслик – Тошкент: Муסיқа, 2010. 18-19 б.
9. Саидов А.Х. Ўзбекистон ҳуқуқ тизимининг шаклланиши ва ривожланиши. — Т.: Адолат, 2002.
10. Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 29 августдаги “Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тўғрисида”ги Қонуни.
11. Саидов А.Х. Сравнительное правоведение. — Т.: Адолат, 2004;

